

AHOLI ORASIDA PARAZITAR VA YUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI

ПРОФИЛАКТИКА ПАРАЗИТАРНЫХ И ИНФЕКЦИОННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ

PREVENTION OF PARASITIC AND INFECTIOUS DISEASES AMONG THE POPULATION

*Axunjonova X.A. - E-mail: axunjonova1975@gmail.com
ORCID.org/0009-0007-0213-130X, Central Asian Medical University*

Annotatsiya: *Marhamat tumani aholisi orasida parazitlar va yuqumli kasalliklarni o'rganish ushbu kasalliklarni kelib chiqishi va oldini olishda muhim hisoblanadi. Jami aholining 736 nafarida (enterobioz-645 ta, geminolipidoz-91 ta) parazitlar va yuqumli kasallik holati so'rov va statistika usullari orqali aniqlangan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, aholining tibbiy madaniyatining pastligi, sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik, ratsional ovqatlanmaslik va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilmaslik sabab, 2020 yilga nisbatan kasallanish oshganligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *yuqumli kasalliklar, parazitlar, gelmintoz, enterobioz, sog'lomlashtirish, oldini olish, epidemiologik.*

Annotation: *The study of parasitic and infectious diseases among residents of the Markhamat district is important for the occurrence and prevention of these diseases. Of the total population, 736 people (enterobiasis-645, geminolipidosis-91) were diagnosed with parasitic and infectious diseases using survey and statistical methods. The results obtained show that due to the low medical culture of the population, failure to adhere to a healthy lifestyle, poor nutrition and failure to observe personal hygiene rules, an increase in morbidity was found compared to 2020.*

Keywords: *infectious diseases, parasitic, helminthiasis, enterobiasis, rehabilitation, prevention, epidemiological.*

Аннотация: *Изучение паразитарных и инфекционных заболеваний среди жителей Мархаматского района имеет важное значение для возникновения и профилактики этих заболеваний. Из общей численности населения у 736 человек (энтеробиоз-645, геминолипидоз-91) диагностированы паразитарные и инфекционные заболевания опросно-статистическими методами. Полученные результаты показывают, что из-за низкой медицинской культуры населения, несоблюдения здорового образа жизни, нерационального питания и несоблюдения правил личной гигиены установлено увеличение заболеваемости по сравнению с 2020 годом.*

Ключевые слова: *инфекционные болезни, паразитарные, гельминтозы, энтеробиоз, реабилитация, профилактика, эпидемиологические.*

Kirish. *Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda, parazitlar va yuqumli kasalliklari (gijja kasalligi) dunyoda tarqalishi bo'yicha nafas yo'llari kasalliklaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jumladan, bizning respublikamizda ushbu kasalliklar bilan har yili 250000-300000 kishi kasallanadi [1].*

Parazitlar va yuqumli kasalliklarning insoniyat orasida kelib chiqishi, tarqalishi va tugatilishining o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, parazitlar va yuqumli kasalliklarning butunlay yo'q bo'lib ketishi yaqin yillar ichida kuzatilmaydi. Zeroki, ba'zi kasalliklar tugatilayotgan bo'lsa, o'rniga yangilari kelib chiqmoqda. Shu sababli parazitlar va yuqumli xastaliklar uzoq yillardan beri tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda [2].

Tadqiqotning maqsadi: *Marhamat tumani aholisi orasida parazitlar va yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha bajarilgan ishlarni ilmiy asoslash.*

Materiallar va tadqiqot uslublari: Marhamat tumanining aholi soni 2020 yilda 179000 nafarni, 2021 yilda 180457 nafarni tashkil etdi. Shundan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 2020 yilda 42577 nafarni, 2021 yilda 44253 nafarni tashkil etdi. Tuman Farg'ona viloyati Quva tumani, Asaka tumani, Buloqboshi tumani, Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Marhamat tumanidan Farg'ona va Kerkidon kanali oqib o'tadi. Kuzatuvda ya'ni 2021 yil davomida 33310 nafar aholi gelmintoz tahlillari uchun analiz topshirgan bo'lib, ularning 736 nafarida kasallik holati aniqlangan. Tekshirilganlarning 23459 nafari 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni tashkil etib, ularning 725 nafarida kasallik holati aniqlangan. Jami kasalliklarning 645 tasi enterobioz, 91 tasi geminolipidoz va yil davomida 1 ta exinokokkoz kasalligi aniqlangan.

Tadqiqot ishlarini olib borishda so'rov va statistika usullari qo'llanildi.

Natijalar va muhokama: Statistika usullari asosida 736 nafar aholi (645 tasi enterobioz, 91 tasi geminolipidoz) o'rganildi va tahlil etildi. 2018 yildan 2021 yilgacha Marhamat tumani aholisi orasidagi parazitlar va yuqumli kasalliklarning ma'lumotlari quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Aholini gijjalarga tekshirish

Yillar	Reja	Bajarildi	%
2018	40000	57603	144,0075
2019	40000	50735	126.83

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholi orasida parazitlar va yuqumli kasalliklarni tekshirish reja bo'yicha 2018 yilda 40000 ta belgilangan va 57603 (144,0075%) nafar aholi tekshirilgan. 2019 yilda esa 40000 ta belgilangan va 50735 (126,83%) nafar aholi tekshirilgan. Bu tekshiruvlarni tahlil qilishdan maqsad, Marhamat tumani aholisining parazitlar va yuqumli kasalliklar bilan zararlanishi rivojlanish ehtimolligi o'rganildi.

2-jadval

Aholi o'rtasida topilgan Gijja kasalliklari

Yillar	Kasallik aniqlandi	14 yoshgacha	Zararlanish darajasi
2018	1035	910	87,9
2019	471	444	94.2

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2018 yilda parazitlar va yuqumli kasalliklar jami 1035 nafar aholida aniqlangan, shundan 910 nafari 14 yoshgacha bo'lgan bolalar, zararlanish darajasi 87.9% ni, 2019 yilda jami 471 nafar aholida kasallik aniqlandi, shundan 444 nafari 14 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, zararlanish darajasi 94.2% ni tashkil etmoqda. 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning gijja kasalliklari bilan zararlanishi 6.3% ga oshganligi aniqlandi.

3-jadval

Turlari bo'yicha

Kasalliklar nomi	Yillar				14 yoshgacha			
	2018	2019	2020	2021	2018	2019	2020	2021
Askaridoz	2	-	-	-	2	-	-	-
Teniyarinxoz	-	-	-	-	-	-	-	-
Gimenolepidoz	100	52	55	91	78	48	55	90
Enterebioz	933	419	570	645	830	396	549	634
Exinokokkoz	2	4	-	1	2	-	-	-

2021 yil davomida esa 33310 nafar aholi gelmintoz tahlillari uchun analiz topshirgan bo'lib, ularning 736 nafarida kasallik holati aniqlangan. Tekshirilganlarning 23459 nafari 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni tashkil etib, ularning 725 nafarida kasallik holati aniqlangan. Jami kasalliklarning

645 tasi enterobioz, 91 tasi geminolipidozdir. Ushbu kasallanishlarni barchasi nazoratga olindi. Ularning 3980 nafar oilaviy muldoqotdagilari tekshiruvdan o'tkazildi.

Xo'kiz tizmasi ya'ni teniyarinxoz kasalligiga so'rov o'tkazish qabulga kelgan bemorlarning har birida so'rov o'tkazilib, kasallik topilmadi.

Tuman hududida yil davomida 1 ta exinokokkoz kasalligi aniqlangan bo'lib, barcha kasallik o'choqlarida veterinariya bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda epidemiologik tekshiruvlar olib borildi.

2021 yil davomida jami 1868 ta sanitariya gelmintologik tahlillar o'tkazilgan, shundan 1154 ta tuproq, 261 ta qum, 181 ta suv, 272 ta savzavot tekshirildi. 25 ta holatda musbat natija aniqlandi. 880 ta surtma namunasi tekshirilgan bo'lib, undan 68 ta musbat natija aniqlandi.

2021 yil 12 oyi davomida davolash profilaktika muassasalarida olib borilgan ishlar tahliliga ko'ra itlarning visseral leyshmanioziga qarshi kurashish chora- tadbirlari, odamlar o'rtasida visseral leyshmanioz kasalligini kamayishga erishishning samarali usuli aholiga "Visseral leyshmanioz kasalligining asosiy manbasi hisoblangan egasi noma'lum bo'lgan va daydi itlarni yo'qotish ishlarini tashkil etish" bo'yicha sanitariya oqartiruv ishlari o'tkazilgan.

Tumanda bezgakni erta aniqlash va aholi orasida tarqalishini oldini olish maqsadida 2021 yil mobaynida 645 nafar fuqaro dispanser kuzatuviga olingan, shundan 42 nafari bezgak kasalligi bo'yicha xavfli hududlardan kelganlarni tashkil qildi. Kuzatuv mobaynida Marhamat tumani aholisining parazitlar va yuqumli kasalliklar bilan zararlanish 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida oshganligi aniqlandi.

Xulosa va tavsiyalar:

1. Aholisi orasida parazitlar va yuqumli kasalliklarni erta aniqlash, davolash va uni oldini olish;[4]

2. Parazitlar va yuqumli kasalliklari bilan og'riq bemorlarda ratsional va parhez ovqatlanishni samaradorligini oshirish maqsadida oilaviy poliklinikalarda, stasionarlarda va aholi orasida tibbiy-gigiyenik hamda profilaktika ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi;[3]

3. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, jismoniy faollik va to'g'ri ovqatlanish yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish.[5]

4. Parazitlar va yuqumli kasalliklarini oldini olish davolashdan ko'ra yaxshiroqdir, shuning uchun atrofingizni va uyingizni toza saqlashga, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishga harakat qiling.[4]

Agar o'zingizda bezgakning yuqori isitma, titroq, ko'ngil aynishi va zaiflik belgilarini sezsangiz, darhol shifokorga murojat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.D.Ahmedova, M.K.Shokirov "Gijjalari – butun organizm xastaligi" Uslubiy tavsiyanoma «FARG'ONA» nashriyoti, 2007 y.
2. M.D.Ahmedova, O.A. Abduqodirov "Yuqumli kasalliklar" darslik - Toshkent: Noshir 2012 y.
3. Y.M. Fayziyev, X.A. Fayziyeva "Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya" Toshkent — «Ilm Ziyo» — 2016.
4. M.D.Ahmedova, M.K.Shokirov, L.N.To'ychiyev, "Fassioloyozdan saqlaning!" Uslubiy qo'llanma. Toshkent 2022 y.
5. A.X.Ahunjonova, M.M.Yusupova "Aholiga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda tibbiyot muassasalarining o'rni" Acta CAMU maxsus son 17. 18.04.2024